


“SHISHA: Ipak yo’li bo’ylab qumdan shisha keramikagacha” nomli yangi kitob


Qisqacha izoh



Bir necha hafta oldin Italiyada CLUT (www.clut.it) tomonidan yangi " SHISHA: Ipak yo’li bo’ylab qumdan shisha keramikagacha" kitobi nashr etildi. Kitobning hammuallifligi Turindagi Politexnika universiteti professori Massimo Tomalino va Toshkentdagi Turin politexnika universiteti professori Dilshat Tulyaganov tomonidan yaratilgan. Bu mualliflarning ikkinchi kitobidir, birinchi kitob esa "CHINNI: ruzgor buyumlardan stomatologiya

moddalarigacha" deb nomlangan bo’lib o’sha nashriyot tomonidan 2017 yilda chiqarilgan.

“SHISHA: Ipak yo’li bo’ylab qumdan shisha keramikagacha” kitobining birinchi qismi bir necha ming yillar oldin birinchi shisha paydo bo’lgani, uning san’atdagi , arxitektura va fan tarixidagi ahamiyatiga bag’ishlangan. Shuningdek, kitobxonga Buyuk Ipak yo’li bo’ylab qiziqarli (virtual) sayohat taklif etiladi: bu munosabatda Evrosiyoning g’arbiy va sharqiy mamlakatlarida turli xil oynalardan foydalanish dunyoning turli qarashlari bilan chambarchas bog’liq. Shunday qilib, shisha tarixi asrlar davomida ijtimoiy hodisalari bilan uzviy bog’liqlikda taqdim etilgan.



Ikkinchi qism shisha sohasidagi ilm-fan va texnologiyalarga bag'ishlangan bo'lib, unda shishaning tarkibiy nazariyalari asoslari, silikat shisha va shisha keramika ishlab chiqarish usullari, shuningdek tarkib- xususiyat -funktsiya munosabatlari tahliliga alohida e'tibor qaratilgan.

Tarix davomida shishaning rivojlanishi xronologiyasi kitobning oxirida berilgan bo'lib, unda shishaning evolyutsiyasidagi asosiy yutuqlar va insoniyatga ta'siri haqida batafsil xronologik jadval keltirilgan.

Ushbu kitob ko'plab kitobxonlar, shu jumladan talabalar va aspirantlar, olimlar, akademik va sanoat doiralari tadqiqotchilari, shuningdek, shunchaki shisha mavzusiga qiziqqan va bu haqda ko'proq bilishni istaganlar uchun foydali bo'lgan qimmatbaho, fanlararo, qat'iy, ammo tushunish oson bo'lgan sharhni taqdim etadi.